

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№11-S O N

9710 xalqaro daraja



№240874




ISSN: 3060-4621

2025-YIL, NOYABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD., TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 725 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29- noyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BANGLADESH VA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISHI....7	Soliyev Axmadjon
ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭКОСИСТЕМУ E-COMMERCE: АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ КОНВЕРСИИ И ПОЛЬЗОВАТЕЛЬСКОГО ОПЫТА НА ПРИМЕРЕ КРУПНЕЙШИХ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ22	Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Аббарович
МОДЕЛИ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОДА ТН ВЭД: ПЕРСПЕКТИВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ37	Муратова Шохиста Ниматуллаевна
GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINING O'ZIGA HOS JIHATLARI (RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI MISOLIDA).....45	Tuychiev Alisher Jurayevich
ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ56	Касимова Фатима Тулкуновна, Джалилов Шерзод Кахрамонович
FACTORS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF PRODUCTION POTENTIAL OF INDUSTRIAL ENTERPRISES62	Allaeva Gulchekhra Jalgasovna
HUDUDLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI TENDENSIYASINI BAHOLASH70	Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich
MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI78	Duschanov Alisher Sherzod o'g'li
MAJBURIY SUG'URTA ZAXIRALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING AMALDAGI HOLATI85	Kodirkulov Oybek Turdiboyevich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI.....98	Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich
SANOAT KORXONASI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNDA KICHIK BIZNESNING O'RNI107	Usmonova Dilfuza Ilhomovna
TIBBIYOT MUASSASALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISH, HISOBGA OLISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....116	Ruziyeva Umida Muzaffarovna
INNOVATSION STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI126	Yusupov Saidvali Shukrullayevich
SOHALAR KESIMIDA SOLIQ YUKINI ANIQLASHNING AHAMIYATI137	Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Aminboyev Javohir Ravshanbek o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Choriyev Og'abek Alisher o'g'li, Usmonov Doniyor Maxamadjon o'g'li
АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТ МИГРАЦИОННОГО ОТТОКА ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ИЗ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИЙ ИХ РЕТЕНЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ144	Сайфутдинова Нигина Фуркатовна, Хусаннов Равшан Рахимович
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА.....157	Холикова Рухсора Санджаровна
O'ZBEKISTON ELEKTRON PULGA O'TISH SHAROITIDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDAN KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK.....169	Abdiyev Mansur Musurmonovich, Xujamuradov Abror Ro'zimurat o'g'li, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich
O'ZBEKISTONDA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI185	Akbarov Boburjon Sobirjon o'g'li
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....193	Ramazanov Suhrobjon Sherzod o'g'li

TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARINING KO'P OMILLI KLASSTER TAHLILI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	202
Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	209
Soliyev Axmadjon, Ibroximov Avazbek	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI	217
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
MINTAQADA IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI	222
Sapayev Maxsudbek Karimovich	
MINTAQ SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	227
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MODERN APPROACHES TO INDUSTRIAL COOPERATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN'S ECONOMY	233
Boyturayev Olimjon Urayimovich	
NAVOIY VILOYATIDA “YASHIL BELBOG’”LAR BARPO ETISHDA INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASH MINTAQAVIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI	244
Sayfulina Alfira Feratovna	
MINTAQ SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH	259
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	266
Raximov Furqat Jalolovich	
MARKAZIY BANKNING PUL TAKLIFI VA BANK REZERV LARI SIYOSATI: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TAHLIL.....	276
Safarova Zarina	
TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATUVCHI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	286
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
INTEGRATED E-COMMERCE MANAGEMENT SYSTEM BASED ON THE ERPI INDEX: CONCEPT, METHODOLOGY, AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN	295
Isokhujaeva Munira Yashnarovna	
РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕЙ ТОРГОВЛИ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ	301
Рауандина Гулдарай Калкеновна, Сайфуллаева Мадина Исмаевна	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI MAHSULOT PASPORTINI YARATISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	315
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
DUNYODAGI MINTAQAVIY TAFOVUTLAR: ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA YECHIMLAR.....	327
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	
INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI	334
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI	341
Mauzerov Jaxongir Ulug'bek o'g'li	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MARKETINGNING AHAMIYATI	348
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	355
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
ЭВОЛЮЦИЯ МАРКЕТИНГА И ТЕХНОЛОГИЙ КАК ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	362
Туйчиев Комилжон Лазизович	

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI O'TKAZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	369
Murtozayeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
ИННОВАЦИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	378
X.T. Буриев, Тошимов Улугбек Хакимович	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI	384
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
THE EVOLUTION OF MANAGEMENT APPROACHES IN THE 21ST CENTURY – ADAPTIVE MODELS OF TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL STRUCTURES	391
Tukhtaboev Abdurashid Tursunovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA, ELEKTRON XIZMATLAR VA AI TEXNOLOGIYALARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	398
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
MARKETING TADQIQOTLARDA BOG'LIQLIK KOEFFITSENTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	409
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
GLOBALASHUV DAVRIDA MAMLAKATDA FRILANSERLIK FAOLIYATI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'P OMILLI INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISHNING NEYRO-RAVSHAN KLASSIFIKATSIYA MODELI	428
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	435
Adamboyev Abror Akrom o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СЕМЕHOBOДЧЕСКОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ГЛОБАЛЬНОЙ АГРАРНОЙ И ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	443
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O'RNI	458
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
SI BILAN JIHOZLANGAN INNOVATSIYALARINING CHAKANA SAVDODAGI ROLI: ISTE'MOLCHI JALB ETILISHI, XARID ODATLARI VA MARKETING STRATEGIYASI.....	464
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETILISHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING BOSH OMILI	482
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIVAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	491
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI	504
Xamidbayev Asadbek Nodir o'g'li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI XALQARO BOZORLARGA CHIQISH IMKONIYATLARI.....	511
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIK OMILLARI.....	519
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASH IMKONIYATLARI.....	526
Ibodullayev Shohboz To'liqin o'g'li	
DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLARDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING XORIJ TAJRIBASI.....	534
Azizova Zilola Lochinovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL KREDITLASH MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH: EKOLOGIK LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI.....	544
Allayarov Suxrob Rustamovich	

OILAVIY TADBIRKORLIK OMILLARI VA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI	553
Zaxidova Umida Farxodovna	
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	567
Аминова Азиза Батырбаевна	
AVTOMOBIL SANOATIDA MARKETING TADQIQOTLARI ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	575
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
HUDUDLARDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	583
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi, Goziyeva Shaxina Djahongirovna	
SANOAT KLASSTERLARIDA MARKETING EKOTIZIMI ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQALAR TAHLILI	591
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
AUTSORSING VA AMALIYOT	601
Shodmonov Shokir Dustmurodovich	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ О ПОКУПКЕ.....	610
Усмонова Диёра Маҳмуд кизи, Нухритдинхаджаев Улугбек, Атаханов Асадбек	
AGROSANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH	620
Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA AUDITORIYANI SEGMENTATSIYALASH	628
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI	636
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
HUDUDLAR BO‘YICHA MOLIVAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR	645
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ.....	660
Эргашходжаева Шахноза Джасуровна, Хасанов Ганишер, Сафаров Азизбек	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	676
Ibragimov Salohiddin Ochilovich	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI	685
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	694
Isakov Axmadali Esanbaevich	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: КАК ДАННЫЕ О КЛИЕНТАХ, ЛОЯЛЬНОСТЬ И ОМНИКАНАЛЬНОСТЬ ПОВЫШАЮТ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РОЗНИЦЫ (ФОКУС НА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ).....	704
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	715
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	

TIBBIYOT MUASSASALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISH, HISOBGA OLISH VA MOLİYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Ruziyeva Umida Muzaffarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni tan olish, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning normativ-huquqiy asoslari bayon qilingan. Xususan, tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari muayyan guruhlariga ajratilib tasniflangan holda tavsiflab berilgan hamda tadqiqot natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit soʻzlar: tibbiyot muassasasi, davlat tibbiyot muassasasi, daromad, xarajat, buxgalteriya hisobi, byudjet hisobi, byudjet hisobi standartlari, hisob siyosati.

Аннотация

В данной статье описана нормативная база признания, учета и отражения в финансовой отчетности доходов и расходов в медицинских учреждениях. В частности, описана нормативная база учета доходов и расходов в медицинских учреждениях путем их классификации по конкретным группам и сделаны выводы на основе результатов исследования.

Ключевые слова: медицинское учреждение, государственное медицинское учреждение, доходы, расходы, бухгалтерский учет, бюджетный учет, нормативы бюджетного учета, учетная политика.

Abstract

This article describes the regulatory framework for the recognition, accounting, and reflection of income and expenses in financial statements in medical institutions. In particular, the regulatory framework for accounting for income and expenses in medical institutions is described by classifying them into specific groups, and conclusions are drawn based on the research results.


Keywords: medical institution, state medical institution, income, expenditure, accounting, budget accounting, budget accounting standards, accounting policy.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida sog'liqni saqlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish, tibbiyot muassasalari faoliyatining institutsional va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida [8] aholining real ehtiyojlari va xalqaro standartlar talablariga to'liq mos keladigan, inklyuziv va barqaror tibbiyot tizimini shakllantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan bo'lib, ularning samarali ijrosi bugungi kunning dolzarb strategik vazifalaridan biridir. Bunday sharoitda mavjud tibbiyot muassasalari faoliyatini zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida samarali tashkil etish, ularning resurs salohiyatidan oqilona foydalanish, moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri

klassifikatsiya qilish va hisobga olish, shuningdek daromadlar hamda xarajatlarning shaffof aks ettirilishini ta'minlash muhim metodologik va amaliy ahamiyatga egadir. Chunki, daromad va xarajatlarni aniq hisobga olish tibbiyot muassasasining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy salohiyatini baholash, uning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish hamda rivojlanish istiqbollari belgilash imkonini beradi. Tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish, moliyaviy hisobotlarda xalqaro me'yorlar asosida ifoda qilishning huquqiy-normativ asoslarini puxta bilish va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llay olish bu sohadagi mutaxassislar uchun muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda amalda faoliyat yuritayotgan tibbiyot muassasalarini ikki guruhga ajratgan holda tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tibbiyot muassasalari va ular moliyaviy faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'yicha tasniflanishi¹

Monografik tadqiqot obyekti "Respublika qon quyish markazi" davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat tibbiyot muassasasi bo'lib, uning moliyaviy faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'yicha daromadlar va smeta xarajatlari, hisobga olish usullari, ular bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning me'yoriy-huquqiy asoslariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

¹Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Albatta, amalda davlat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud bo'lib, bugungi kunda amaldagi mavjud muammolarni bartaraf etish va xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari tadqiq qilib o'rganilmoqda. Jumladan, N.B.Berkinova, M.P.Sarunova va S.V.Kikeevalar [9] tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularni me'yoriy-huquqiy tartibga solish va hisobga olish uslubiyotini takomillashtirish masalalarini Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi va xalqaro standartlar asosida tadqiq qilib o'rganishgan. Ular daromadlar va xarajatlar tushunchalari, ularni tasniflash, buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish, tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish masalalariga e'tibor qaratishadi. Bunda mualliflar asosan tibbiyot muassasalarida majburiy tibbiy sug'urta va pullik xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida hisobga olish va hisobotda aks ettirish masalalarini tadqiq qilib o'rganigan holda o'z yondashuvlarini keltirib o'tishgan.

S.Sisyuk va V.Kirik [10] tibbiyot muassasalarini tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmat xarajatlari hisobi va ularning tannarxini hisoblash borasida olib borgan tadqiqot natijalari asosida tibbiyot muassasalarida pullik tibbiy xizmatlar tannarxini hisoblash jarayonini 3 bosqichga ajratgan holda tasniflaydi, tibbiy xizmatlar tannarxi tarkibi, pullik xizmatlar tannarxini hisoblash algoritmini hamda tibbiyot muassasalarida tibbiy xizmatlar xarajatlarning sintetik va analitik hisobiga doir o'z yondashuvlarini amaliy ma'lumotlar asosida keltirib o'tishgan.

Z.D.Iskakova, A.J.Kapenova va S.V.Zenchenkolar [10] tomonidan Qozog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari borasidagi ilmiy izlanishlarida empirik ma'lumotlar tahlili va xalqaro tajriba o'rganilgan holda sog'liqni saqlash tizimida xarajatlarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tasniflaydi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha xarajatlarni taqsimlash sxemasini ko'rsatib o'tadi. Biroq, mualliflar moliyalashtirish manbalari va ular bo'yicha xarajatlarni taqsimlashda statistik ma'lumotlar va xalqaro tajribalarga asoslangan holda o'z yondashuvlarini keltirishadi. Ya'ni, Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablar mualliflar tomonidan bayon qilinmagan.

Sh.M.Qurbonov davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, u "O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobining standartlarini bosqichma-bosqich Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga (IPSAS) moslashtirishni nazarda tutuvchi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda" [14] deb ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalar, iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini tadqiq qilib o'rganish asosida davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisobotining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, predmeti, obyekti va usullarini mazmun jihatdan uzviy ketma-ketlikda shakllantirilgan holda ko'rsatib o'tadi. Bunda muallif asosan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda o'z

yondashuvlarini amalga oshiradi.

Sh.V.Gʻaniyev “Byudjet tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish boʻyicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan boʻlib, ular asosida tegishli tartibda daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi boʻyicha axborotlar shakllantiriladi” [15] deb taʼkidlagan holda byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni Oʻzbekiston Respublikasining Kodekslari», “Qonunlar va qonunosti hujjatlar”, “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari”, “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari”, “Milliy standartlar” va “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga oid nizomlar, uslubiy koʻrsatmalar va boshqa hujjatlar” kabi boʻlimlarga ajratgan holda ularni tavsiflab beradi. Yaʼni, muallif byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish boʻyicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning ayrimlarini qabul qilingan davri, roʻyxatga olingan raqami va kuchga kirgan sanalarini keltirgan holda qisqacha tavsiflash bilan chegaralanadi.

X.B.Xusainov byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtishni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilib oʻrgangan boʻlib, u bugungi kunda mamlakatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida «Hozirgi kunga qadar, Oʻzbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq va byudjet hisobini davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida 14 ta byudjet hisobi standartlari qabul qilindi» [16] deb taʼkidlagan holda tasniflaydi hamda ularni amaliyotga joriy qilinishining imkoniyatlarini koʻrsatib oʻtadi. Biroq, muallif amaldagi byudjet hisobi standartlarini qoʻllash sohasi, hisob obyektlarini tan olish, baholash, buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish borasida belgilangan minimal talablarni yoritib bermaydi.

A.Gʻ.Meliboyevning davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish borasida olib borgan izlanishlarida «Byudjet ijrosi jarayonida aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni oʻzgartiruvchi muomalalarning holati toʻgʻrisidagi axborotni toʻplash, roʻyxatdan oʻtkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimi boʻlgan byudjet hisobini yuritishga qoʻyilgan yagona talabni byudjet hisobi standartlari belgilaydi» [12] degan fikrni ilgari suradi. Fikrimizcha, byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini, xususan daromadlar va xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish boʻyicha yagona talablar faqat byudjet hisobi standartlarida belgilangan emas.

A.A.Ostonokulov byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borgan boʻlib, uning yozishicha: “Byudjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablagʻlarning ahamiyati va zarurligidan kelib chiqib, ushbu mablagʻlarni shakllantirish, tasarruf etish va ularni sarflash bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga soluvchi qator normativ huquqiy-hujjatlar ishlab chiqilgan” [13]. Uning taʼkidlashicha, byudjet tashkilotlari mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida

byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi va ular tasdiqlangan holda vakolatli organlarga taqdim qilinadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasidagi yondashuvlarini e'tirof etish lozim. Chunki, ularning yondashuvlari byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olishning nazariy, me'yoriy-huquqiy va uslubiy jihatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni tan olish, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning normativ-huquqiy asoslarini tadqiq qilib o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, davlat tibbiyot muassasalarining moliyaviy faoliyatini barqaror va samarali tashkil etish, avvalo, ularni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarining mukammalligiga bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, muassasalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha daromadlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish, shakllantirilgan mablag'lardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni aniq hisobga olish hamda ushbu ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda shaffof va xolis tarzda aks ettirish dolzarb ahamiyatga ega. Ana shu ehtiyojlardan kelib chiqib, davlat tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni hisobga olish hamda hisobot tizimini tartibga soluvchi tegishli me'yoriy-huquqiy baza yaratilgan bo'lib, uni muayyan guruhlariga ajratib tizimlashtirgan holda quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Davlat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari¹

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar		
	Guruh	Tasnifi	Tavsifi
1	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari	O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni, Byudjet kodeksi, Soliq kodeksi	Ushbu me'yoriy hujjatlar davlat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish hamda ular bilan bog'liq soliq munosabatlarni tartibga soladi.
2	Byudjet hisobining standartlari	Byudjet hisobi standartlari, Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari	Mazkur me'yoriy hujjatlarda tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni tan olish, ular bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi belgilangan.
3	Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy	Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni	Ushbu qonun osti hujjatlari davlat tibbiyot muassasalari daromadlari va

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar		
	Guruh	Tasnifi	Tavsifi
	hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari	tayyorlash tartibini belgilaydigan nizomlar, yo'riqnomalar, uslubiy ko'rsatmalar va boshqalar.	xarajatlarining buxgalteriya hisobini yuritish tartibini belgilaydi.
4	Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan ichki me'yoriy hujjatlar	Hisob siyosati	Hisob siyosati ichki me'yoriy hujjat bo'lib, u davlat tibbiyot muassasasida daromadlar va xarajatlarni tan olish, buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish uchun foydalaniladigan maxsus prinsiplar, usullar, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

1-jadvalda davlat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari to'rt guruhga tasniflangan bo'lib, uning birinchi guruhi "O'zbekiston Respublikasi qonunlari"ga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi [1].

O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni [2]. Ushbu qonun nafaqat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tartibini, balki tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Bu esa, soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi [3]. Tibbiyot muassasalari daromadlari va xarajatlari bevosita soliq oqibatlarini keltirib chiqaradi. Shu sababli, tibbiyot muassasalari tomonidan soliq to'lovchi va soliq agenti sifatida to'lanadigan soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish, hisobga olish, soliq summasini to'lash va soliq hisobotini taqdim etish tartibi ushbu kodeksda belgilangan tartiblarga asoslanadi.

Ikkinchi guruhga, davlat tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni tan olish, buxgalteriya hisobida to'g'ri va bir xil yondashuv asosida aks ettirish, shuningdek moliyaviy hisobotlarda to'laonli yoritish tartibini belgilaydigan byudjet hisobining standartlari (BHS) kiradi. Xususan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq, byudjet hisobini davlat sektoridagi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IPSAS) bilan uyg'unlashtirish maqsadida qator institutsional va me'yoriy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasida byudjet hisobiga oid bir qator standartlar tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi (2-jadval).

Mazkur standartlar davlat tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bilan bog'liq munosabatlarni tizimli ravishda tartibga soladi. Jumladan, 1-son BHSda tibbiyot

muassasasining hisob siyosatida daromad va xarajatlar hisobiga doir axborotlarni shakllantirish va yoritishga qo'yiladigan talablar aniq belgilangan. 2-son BHSda esa, daromad va xarajatlar tan olingandan so'ng, ular to'g'risidagi axborotlarni hisobda umumlashtirish uchun maxsus schyotlar tizimi belgilab berilgan bo'lib, bu hisob yuritishda yagona metodologik yondashuvni ta'minlaydi. 3-son BHS davlat tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarning byudjet hisobotida aks ettirilishi tartibini belgilaydi hamda hisobot ma'lumotlarining shaffofligi, solishtirish mumkinligi va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchi guruhga, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari kiritiladi. Ushbu hujjatlar davlat tibbiyot muassasalarida daromad va xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishda bir xil metodologik yondashuvni ta'minlaydi, hisobdorlik va shaffoflikni oshiradi hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval
O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standartlari¹

№	Standart raqami va nomi	Tasdiqlangan sanasi	Adliya vazirligidan ro'yxatga olinganligi	Kuchga kirgan sanasi
1	1-son BHS. Hisob siyosati	2016-yil 12-dekabr №91	2016-yil 27-dekabr №2853	2016-yil 31-dekabr
2	2-son BHS. Yagona schyotlar rejasi	2018-yil 10-sentyabr №125	2018-yil 20-oktyabr №3078	2019-yil 1-yanvar
3	3-son BHS. Byudjet hisoboti	2018-yil 18-dekabr №157	2019-yil 18-yanvar №3124	2020-yil 1-yanvar
4	4-son BHS. Valyuta kursi o'zgarishining ta'siri	2018-yil 13-noyabr №142	2018-yil 14-dekabr №3100	2019-yil 1-yanvar
5	5-son BHS. Qishloq xo'jaligi	2018-yil 13-noyabr №143	2018-yil 25-dekabr №3106	2019-yil 1-yanvar
6	6-son BHS. Ijara	2018-yil 12-dekabr №150	2019-yil 4-mart №3142	2020-yil 1-yanvar
7	7-son BHS. Tovar-moddiy zaxiralar	2018-yil 12-dekabr №151	2019-yil 14-yanvar №3120	2020-yil 1-yanvar
8	8-son BHS. Ko'chmas mulk, bino va jihozlar	2019-yil 30-yanvar №11	2019-yil 20-mart №3144	2020-yil 1-yanvar
9	9-son BHS. Nomoddiy aktivlar	2019-yil 20-may №59	2019-yil 24-iyun №3144	2020-yil 1-yanvar
10	10-son BHS. Almashuv operatsiyalaridan olinadigan daromadlar	2019-yil 5-fevral №12	2019-yil 25-mart №3145	2020-yil 1-yanvar
11	11-son BHS. Qarz majburiyatlari bo'yicha xarajatlar	2019-yil 25-fevral №18	2019-yil 9-aprel №3149	2020-yil 1-yanvar
12	12-son BHS. Qurilishga oid shartnomalar	2019-yil 27-may №62	2019-yil 1-iyul №3170	2020-yil 1-yanvar

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

№	Standart raqami va nomi	Tasdiqlangan sanasi	Adliya vazirligidan ro'yxatga olinganligi	Kuchga kirgan sanasi
13	13-son BHS. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar	2022-yil 29-mart №9	2022-yil 1-aprel №3361	2023-yil 1-yanvar
14	14-son BHS. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	2022-yil 3-oktyabr №53	2022-yil 2-noyabr №3396	2023-yil 1-yanvar
15	15-son BHS. Xizmat ko'rsatish bo'yicha konsessiya kelishuvlari	2024-yil 4-iyun №129	2024-yil 22-iyul №3532	2025-yil 1-yanvar
16	16-son BHS. Baholangan majburiyatlar va shartli majburiyatlar va shartli aktivlar	2024-yil 9-sentyabr №175	2024-yil 22-oktyabr №3562	2025-yil 1-yanvar
17	17-son BHS. Xodimlarning daromadlari	2024-yil 9-sentyabr №175	2024-yil 21-noyabr №3578	2025-yil 1-yanvar

Masalan, “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma buxgalteriya hisobini yuritishning yagona qoidalarini belgilaydi [4]. Mazkur Yo‘riqnoma “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun normalariga asoslangan bo‘lib, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha buxgalteriya hisobini tashkil etish mexanizmlarini aniq belgilab beradi. Shuningdek, “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom [5]. muhim me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan biri bo‘lib, unda davlat tibbiyot muassasalarining xarajatlar smetasi, shtat jadvali, daromadlar va xarajatlar smetalari, shuningdek vaqtinchalik xarajatlar smetalari tayyorlash, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi belgilab qo‘yilgan. Mazkur Nizom tibbiyot muassasalari xarajatlarning maqsadli va oqilona rejalashtirilishiga xizmat qiladi.

“Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom esa, ushbu jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanishning aniq qoidalarini belgilaydi [7]. Unga ko‘ra, jamg‘arma mablag‘lari tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, muassasalarning moddiy-texnika bazasini yangilash va mustahkamlash kabi yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi. Bu esa, davlat tibbiyot muassasalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, “Byudjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom byudjet mablag‘laridan “tejamkorlik va barqarorlikni ta‘minlash” tamoyili asosida maqsadli, samarali va shaffof foydalanish mexanizmlarini belgilaydi [6]. Mazkur hujjat byudjet intizomini mustahkamlash, xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek xodimlarni moddiy rag‘batlantirish jarayonlarini tizimlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

To‘rtinchi guruh buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan ichki me‘yoriy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Ularning eng muhim turi – davlat tibbiyot muassasasining hisob siyosati bo‘lib, unda daromad va xarajatlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda byudjet

hisobotida to'g'ri yoritish tartibi atroflicha belgilanadi. Chunki, hisob siyosati tibbiyot muassasalarida mablag'lar harakatini hisobga olishning maxsus prinsiplari, metodlari, amaliy mexanizmlari va tashkiliy-metodologik yondashuvlarini belgilab beradi. Shu boisdan, ushbu hujjat moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi, to'g'riligi va shaffofligini ta'minlash, ichki moliyaviy nazoratni kuchaytirish, hisob-kitob jarayonlarining amaldagi me'yoriy-huquqiy talablarga muvofiqligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot muassasalarida xarajatlar va daromadlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari tadqiq qilib o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- davlat tibbiyot muassasalarida daromadlar va xarajatlar hisobining me'yoriy-huquqiy bazasi barqaror tizim sifatida shakllangan bo'lib, uning huquqiy poydevori Byudjet kodeksi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va Soliq kodeksi orqali mustahkamlangan. Chunki, mazkur qonunlar daromad va xarajatlarni tan olish, hisobga olish, baholash, moliyaviy hisobotda aks ettirish, soliq munosabatlarini yuritish kabi muhim jarayonlar uchun huquqiy va institutsional asos vazifasini bajaradi;

- byudjet hisobining standartlarida (BHS) aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy hisobot turlari, xo'jalik operatsiyalarini baholash va yoritishga oid yagona talablar belgilangan bo'lib, ular davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobining metodologik asosini belgilaydi.

- qonun osti hujjatlari sifatida yo'riqnoma va nizomlarda tibbiyot muassasalarida hisob yuritishning amaliy, texnologik va tashkiliy tartib-qoidalari belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar smeta tuzish, xarajatlarni moliyalashtirish, jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va sarflash, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yuritish, moddiy rag'batlantirish kabi masalalarda yagona amaliy mexanizmlarni ta'minlaydi;

- shuningdek, tadqiqot natijalari asosida monografik tadqiqot obyekti bo'lgan "Respublika qon quyish markazi" davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat tibbiyot muassasasi bo'lganligi bois, uning moliyaviy faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'yicha daromadlarni hamda shakllantirilgan mablag'lar sarfi bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotda taqdim etishni tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari "O'zbekiston Respublikasi Qonunlari", "Byudjet hisobining standartlari", "Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari" va "Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini belgilaydigan ichki me'yoriy hujjatlar" guruhlariga ajratilib, tasniflangan holda tavsiflab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.
<https://lex.uz/docs/2304138#2304143>

2. O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonuni. <https://lex.uz/acts/90762>
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrda 105-son “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi”. Buyrug‘i <https://lex.uz/docs/1714689>
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014-yil 14-noyabrda 74-son “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvalarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi”gi Buyrug‘i bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/2520442>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-mayda 325-son “Byudjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Qaroriga 1-Ilova. <https://lex.uz/ru/docs/7535648>
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 71-son “Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/6358374>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga 1-Ilova. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
9. Берикова Н.Б., Сарунова М.П., Кикеева С.В. Организация бухгалтерского учета доходов и расходов бюджетных учреждений здравоохранения. Экономическая политика и финансовые ресурсы. 2025;4(2): 71-86.
10. Сисюк С., Кирик В. Облік витрат і калькулювання собівартості медичних послуг: теорія та практика. Вісник економіки. 2025. Вип. 2. С. 160–172.
11. Исакова З.Д., Капенова А.Ж., Зенченко С.В. Механизм финансирования здравоохранения в Казахстане и направления его совершенствования. Л.Н. Гумилев атындағы Еуразия ұлттық университетінің ХАБАРШЫСЫ. №2, 2025. 179-190 с.
12. Meliboyev A.G‘. Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, iyun. №6-son. 390-393 betlar.
13. Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. T.: “Vneshinvestprom” nashriyoti, 2021. – 17 b.
14. Qurbonov Sh.M. Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 14 b.
15. G‘aniyev Sh.V. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining innovatsion asoslari. Iqtisodiyot va ta‘lim / 2020. №4. 101-104 betlar.
16. Xusainov X.B. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni takomillashtirish. Central asian journal of education and innovation. Volume 3, Issue 2, February 2024. 119-202



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**